

O'QUV DASTUR PASPORTI

Sog'liqni saqlash vazirligining 2024-yil 26-apreldagi 03-28/8843 sonli "Hududiy davolash profilaktika muassasalarining tashkiliy-kadrlar va inson resurslarini rivojlantirishga mas'ul xodimlari malakasini oshirish to'g'risida" ko'rsatma xati asosida Sog'liqni saqlash vazirligi xuzuridagi Uzluksiz tibbiy-farmatsevtik ta'limni Muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan 2024-yil 6-iyuldagi №1 sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan, MMO-652-2024 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Ta'lim muassasasi nomi	Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi
Kafedra/ bo'lim	Jamoat salomatligi va sog'liqni saqlashni boshqarish
O'quv dastur nomi	Tibbiyot muassasalarida inson resurslarini rivojlantirish xizmati asoslari
O'qish turi	Mavzuli malaka oshirish
O'quv dastur muallifi/ mualliflari	Asadov D.A., Asadov X.D., Xakimov V.A., Abbasxanova Sh.N.
Siklning umumiy soati	72 kredit

Siklda dars beradigan o'qituvchi va trenerlar

				
Kafedra mudiri t.f.d, dotsent Asadov X.D.	T.f.d, professor Asadov D.A.	T.f.d. professor Rustamova X.Ye.	T.f.n, dotsent Xakimov V.A.	T.f.d, dotsent Xamrayev A.K.
				
Katta o'qituvchi Abduraximova S.B.	T.f.n, katta o'qituvchi Aripov T.Yu.	Katta o'qituvchi Sadikxodjayeva D.A.	T.f.n., katta o'qituvchi Agzamov A.A	Assistent Abbasxanova Sh.N

Maqsad

O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 8-avgustdagi O'RQ788 sonli "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonuni, Sog'liqni saqlash vazirining 2023-yil 17-noyabrdagi 291sonli "O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tizimida professional boshqaruvchilarning strategik zaxirasi, ularni qayta tayyorlash va malakasini oshirish samaradorligini tubdan yaxshilash to'g'risida" buyrug'i va Sog'liqni saqlash vazirligining 2024-yil 26-apreldagi 03-28/8843 sonli «Hududiy davolash – profilaktika muassasalarining tashkiliy-kadrlar va inson resurslarini rivojlantirishga

	mas'ul xodimlari malakasini oshirish to'g'risida» ko'rsatma xati ijrosini ta'minlash, sog'liqni saqlash tizimi rahbar xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonlarini muvofiqlashtirishda inson resurslarini rivojlantirish xizmatini, uning mas'ul xodimlarining bilimi, mas'uliyati va muloqot madaniyati bo'yicha bilim va amaliy ko'nikmalarini takomillashtirish.
Siklga taklif qilingan mutaxassislar – kontingent	-sog'liqni saqlash vazirligi, xududiy sog'liqni saqlashni boshqaruv organlari xamda tasarrufidagi muassasalarning (respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari va ularning xududiy bo'linmalari, respublika miqyosidagi muassasalar, xududiy tibbiyot muassasalari, tuman/shahar tibbiyot birlashmalari sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmatining xududiy boshqarmalari hamda bo'linmalari) inson resurslarini rivojlantirishga mas'ul xodimlari; -idoraviy tibbiy xizmatlar va nodavlat tibbiyot muassasalarining inson resurslarini rivojlantirishga mas'ul xodimlari; -sog'liqni saqlash vazirligi nazorat inspeksiyasi, xududiy shu'ba xodimlari; -sog'liqni saqlash vazirligi korrupsiyani oldini olish va "komplayens-nazorat" xizmati xodimlari
Sikl vazifalari	<u>Tinglovchilarga quyidagi yo'nalishlar bo'yicha ma'lumot berish:</u> -O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tizimida rahbar xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va uzluksiz kasbiy ta'limini tashkillashtirish konsepsiyasi; -sog'liqni saqlash tizimida Davlat fuqarolik xizmati asoslari; -tibbiyot muassasasini inson resurslarini rivojlantirish bo'limi faoliyatini huquqiy asoslari; -tibbiyot muassasalarida mehnat munosabatlarini rasmiylashtirish asoslari; -tibbiyot muassasasida xodimlar hisobini yuritish asoslari; -rahbar xodimlar strategik zaxirasini, uzluksiz kasbiy ta'limini tashkillashtirish asoslari; -sog'liqni saqlash tizimida mehnatga haq to'lash tizimi va shakllari, xodimlarni rag'batlantirish asoslari; -sog'liqni saqlashda menejment, nizolarni boshqarish; -sog'liqni saqlash tizimidagi aloxida xizmatlar; -sog'liqni saqlash tizimida korrupsiyaga qarshi kurash, ijro intizomi; -tibbiy huquq, muloqot madaniyati.
Sikl tarkibi	Modul 1. Sog'liqni saqlashni boshqarish asoslari. Modul 2. Tibbiyot muassasalarining moliyaviy-xo'jalik faoliyatini boshqarish asoslari. Modul 3. Tibbiy huquq asoslari. Modul 4. Sog'liqni saqlashda tashkiliy-kadrlar va inson resurslarini rivojlantirish xizmati asoslari. Modul 5. Sog'liqni saqlash tizimida Davlat fuqarolik xizmati asoslari. Modul 6. Sog'liqni saqlash tizimida korrupsiyaga qarshi kurash, muloqot madaniyati asoslari. Yakuniy imtihon, baholash.

O'quv bazalari

Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazining "Jamoat salomatligi va sog'liqni saqlashni boshqarish" kafedrası;
Xududiy sog'liqni saqlashni boshqaruv organlari hamda ular tasarrufidagi davolash-profilaktika muassasalari;
O'zbekiston respublikasi sog'liqni saqlash xodimlari kasaba uyushmalari Respublika Kengashi;
Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari;
Respublika davolash-profilaktika muassasalari.





